

XIII. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 3 618,3 ming kishini tashkil etib, 2024- yil boshidan 57,7 ming kishiga ya'ni 1,6 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1 545,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,7 %), qishloq aholisi soni 2 073,0 ming kishini (57,3 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:

2024- yil yanvar-sentabr oylarida

- Aholi soni **57,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **74,8 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **12,0 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **17,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **2,3 ming nafarni** tashkil etdi

2024- yilning
yanvar-sentabr oylarida

Yil boshida
doimiy aholi soni
3 560 633 kishi
(2024- yil 1- yanvar holatiga)




74,8 *ming bola*
Tug'ilganlar soni



12,0 *ming kishi*
O'lganlar soni



8,7 *ming kishi*
Ko'chib kelganlar soni



13,7 *ming kishi*
Ko'chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni
3 618 321 kishi
(2024- yilning 1- oktabr holatiga)

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2024- yilning 1- oktabr holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qashqadaryo viloyati	3 618,3	1 545,3	2 073,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	299,4	299,4	-
Shahrisabz sh.	149,3	149,3	-
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	225,8	53,1	172,7
Dehqonobod	161,9	30,8	131,1
Qamashi	298,1	70,7	227,4
Qarshi	277,6	100,6	177,0
Koson	317,4	166,6	150,8
Kitob	286,0	106,2	179,8
Mirishkor	131,6	49,4	82,2
Muborak	94,7	75,2	19,5
Nishon	169,6	101,3	68,3
Kasbi	216,5	83,7	132,8
Ko'kdala	192,9	30,1	162,8
Chiroqchi	272,8	78,2	194,6
Shahrisabz	237,9	57,3	180,6
Yakkabog'	286,8	93,4	193,4

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni

(1- oktabr holatiga ming kishi)

	2023- y.	2024- y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	3 538,8	3 618,3	102,2
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	293,8	299,4	101,9
Shahrisabz sh.	146,4	149,3	102,0
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	220,9	225,8	102,2
Dehqonobod	158,6	161,9	102,1
Qamashi	291,5	298,1	102,3
Qarshi	270,5	277,6	102,6
Koson	310,1	317,4	102,4
Kitob	280,2	286,0	102,1
Mirishkor	128,8	131,6	102,2
Muborak	92,9	94,7	101,9
Nishon	165,6	169,6	102,4
Kasbi	211,7	216,5	102,3
Ko'kdala	187,2	192,9	103,0
Chiroqchi	266,0	272,8	102,6
Shahrisabz	233,7	237,9	101,8
Yakkabog'	280,9	286,8	102,1


Yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2023- y.	2024- y. ¹⁾	o‘ <i>s</i> ish, kamayish	2023- y.	2024- y. ²⁾
Tug‘ilganlar	75 095	74 787	-308	28,6	27,8
O‘lganlar	12 874	12 023	-851	4,9	4,5
Tabiiy o‘ <i>s</i> ish	62 221	62 764	543	23,7	23,3
Nikohlar	18 778	17 909	-869	7,2	6,7
Ajralishlar	2 601	2 276	-325	1,0	0,8

Tug‘ilish darajasi. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 74 787 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (75 095 kishi) nisbatan 308 kishiga kamaydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 27,8 promilleni tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (28,6 promille) nisbatan 0,8 promillega kamaydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-sentabr oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Muborak tumanida 19,7 dan 22,1 promillega va G‘uzor tumanida 23,7 dan 24,9 promillega ko‘payishi kuzatilgan.

¹⁾ dastlabki ma‘lumot

²⁾ dastlabki ma‘lumot


Tug‘ilish. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 74,8 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 27,8 promilleni tashkil etdi hamda 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega kamayganligi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 28,6 promille bo‘lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning bo‘yi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq bo‘lishi lozim.


Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)




O‘lim darajasi. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘lganlar soni 12 023 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (12 874 kishi) nisbatan 851 kishiga yoki 93,4 foizga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,5 promilleni tashkil qildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 4,9 promille).

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O'lim soni va koeffitsientlari




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Qarshi shahrida (4,7 dan 5,7 promillega), Yakkabog‘da (4,5 dan 4,6 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 17,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,7 promilleni tashkil etdi.



Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti


(2024- yilning yanvar-sentabr oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,8 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti

(2024- yilning yanvar-sentabr oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2024- yilning yanvar-sentabr oylari FHDYO organlarida 17 909 ta nikohlar va 2 276 ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 6,7 ta nikoh (2023- yilning tegishli davrida 7,2 ta) va 0,8 ta ajralishlar (2023- yilning tegishli davrida 1,0 ta) to‘g‘ri kelgan.




Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-sentabr oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023- y.</i>	<i>2024- y.</i>	<i>2023- y.</i>	<i>2024- y.</i>
Qashqadaryo viloyati	18 778	17 909	2 601	2 276
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	1 613	1 470	366	285
Shahrisabz sh.	657	643	192	149
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	1 310	1 220	117	140
Dehqonobod	856	898	103	83
Qamashi	1 560	1 482	184	184
Qarshi	1 543	1 420	194	161
Koson	1 813	1 707	136	143
Kitob	1 360	1 287	206	205
Mirishkor	633	636	68	45
Muborak	572	522	69	69
Nishon	944	876	137	97
Kasbi	1 269	1 168	123	104
Ko‘kdala	869	969	64	56
Chiroqchi	1 334	1 284	176	174
Shahrisabz	1 048	1 009	187	178
Yakkabog‘	1 397	1 318	279	203

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8 673 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 13 749 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


		2023- yilning yanvar-sentabr oylarida	2024- yilning yanvar-sentabr oylarida
	Ko'chib kelganlar	6 936	8 673
	Ko'chib ketganlar	12 647	13 749
	Migratsiya saldosı	-5 711	-5 076

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida migratsiya qoldig'i minus 5 076 kishiga (2023- yilning shu davrida minus 5 711 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Qamashi (minus 808), Kitob (minus 748) va Yakkabog' (minus 598) tumanlarida kuzatilgan.


Yanvar-sentabr oylarida

Soni, *ming kishi*

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda
²) dastlabki ma'lumot



Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 2 99,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 3,8 ming kishiga yoki 1,3 % ga oʻsgan.

Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

(1 000 aholiga nisbatan promille)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 5,4 ming bola tugʻilganligi qayd etilgan boʻlib, mos ravishda tugʻilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 24,5 promilleni tashkil etdi (2023- yilning mos davrida 26,4 promille boʻlgan).

FHDYO organlarida 2024- yilning yanvar- sentabr oylarida 1 470 ta nikoh va 285 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,6 promilleni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan kamaygan. (2023- yilning mos davrida 7,4 promille boʻlgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 1,3 promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan teng. 2023- yilning mos davrida 1,7 promille boʻlgan.

Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-sentabr holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

